O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

H.A.Saipova
Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar 5
A.T.Nazarov
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar 9
E.T.Umarov
Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari 12
M.A.G'ofurova
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi 16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov
Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari 21
L.S.Isroilova
Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limini tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi 27
G.T.Hojikarimova
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish 31
A.A.Абдуманонов
Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений 36
Н.Н.Бобожонов, П.Д.Мамутов
Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов 40
M.A.Esonmirzayeva
Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar 43
M.A.Esonmirzayeva
Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar 47
E.E.Tadjibayev
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati 51
S.A.Maxmudova
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish 55
M.E.Madaminova
Talabalarning texnik ijodkorligini rivojlantiish mazmuni va metodik asoslari 59
M.B.Kamoldinov
Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi 63
Z.A.Davlataliyeva
Talabalarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari 67
F.A.Hamdamova
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli 71
B.A.G'ofurova
Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish 75
N.O.Xaydarova
Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari 78
U.I.Obidjanov
Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University
Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a12
UO'K: 378.14:37.013.42

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

THE NEED TO DEVELOP THE PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE TEACHERS

Tadjibayev Eldar Eshkulovich
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbligi, ularning zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorligini ta'minlashdagi o'rni, ta'lim sifatini oshirishdagi roli ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, samarali metodlar va amaliy yondashuvlar yoritilgan.

Аннотация

В данной статье научно обоснована актуальность формирования и развития профессиональных навыков будущих учителей, их роль в обеспечении готовности к современной педагогической деятельности и повышении качества образования. Кроме того, раскрыты факторы, влияющие на развитие профессиональных навыков, эффективные методы и практические подходы.

Abstract

This article scientifically analyzes the relevance of forming and developing the professional skills of future teachers, their role in ensuring readiness for modern pedagogical activity, and their contribution to improving the quality of education. In addition, the factors influencing the development of professional skills, effective methods, and practical approaches are presented.

Kalit so'zlar: *bo'lajak o'qituvchi, kasbiy ko'nikma, pedagogik tayyorgarlik, metodik kompetensiya, ta'lim sifati.*
Ключевые слова: *будущий учитель, профессиональные навыки, педагогическая подготовка, методическая компетентность, качество образования.*
Key words: *future teacher, professional skills, pedagogical training, methodological competence, quality of education.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish va ushbu tayyorgarlik asosida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Kelajak o'qituvchilarining kasbiy faoliyatni yuritishda zarur bo'lgan me'yor va qoidalarni chuqur o'zlashtirishi, ularga rioya qilgan holda ish olib borishi uchun, ularni malakali mutaxassis sifatida tayyorlashga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

"Kasb" atamasi O'zbek tilining izohli lug'atida, inson mehnat faoliyatining muayyan sohasini ifodalaydi hamda u ma'lum tajriba va tayyorgarlikni talab qiluvchi hunar turi sifatida izohlangan. Pedagogika faniga oid atamalar lug'atida esa "kasb" – bu muayyan sohada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va malakalarga ega bo'lishni talab qiluvchi, insonning aqliy salohiyati, jismoniy imkoniyatlari hamda huquqiy asoslariga tayanuvchi faoliyat turi sifatida talqin etiladi. Zamonaviy ta'lim muhitida yangi pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar joriy etilishi natijasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi yanada murakkablashmoqda. Shu sababli, kasbiy tayyorgarlik jarayonida nafaqat an'anaviy metodlar, balki interaktiv, situatsion va loyihaviy usullarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

PEDAGOGIKA

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kasb tanlash va kasbiy faoliyatni shakllantirishga oid masalalar bir qancha pedagog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. Jumladan: Professor J.Xasanboyev bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy faoliyatga e'tibor qaratadi va kasbiy faoliyatga quyidagicha ta'rif beradi: – Kasbiy funktsiya – tegishli o'quv muassasalarining bitiruvchisiga tegishli bo'lib, shaxsning hayotda egallagan sohasida faoliyat ko'rsata olish, o'z kasbi doirasida bilimlarini o'zlashtirish va ularni og'ishmay amalda joriy eta olish faoliyatidir.

Professor M.Ochilov o'zining "O'qituvchi odobi" asarida "Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli ahloqiy normalar va talablar ham bor, bunday ahloq kasb (professional) ahloqi deyiladi" degan fikrlarni beradi. Olim bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Pedagog olim A.Xoliqov o'z tadqiqotida o'qituvchilik kasbi mazmun mohiyatini asoslab, "Pedagogik kasb - bu komil inson sifatida harakatlantiruvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir" degan fikrni beradi.

Pedagogik ensiklopediyada izohlanishicha kreativlik (lot. creation-yaratuvchanlik, ijodkorlik)-qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g'oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon; shaxsning yangi g'oyalarni yaratish va qabul qilishga tayyorligini tavsiflovchi kreativ qobiliyatdir.

Kreativ kompetentlik– pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va kreativ yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativlik (ingl. "create" – yaratish, "creative" – "yaratuvchi", "ijodkor") – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi kreativ qobiliyati.

"Kreativlik" tushunchasi 1922-yilda D.Simpson tomonidan birinchi marta ilmiy atama sifatida qo'llanilib, insonni standart fikrlashdan voz kechish qobiliyati sifatida va yangilik yaratadigan, an'anaviy fikrlash tarzidan chetga chiqadigan kreativ faoliyat bilan bog'liq" deb talqin etilgan.

Kreativlikni rivojlantirish ta'lim va faoliyat jarayonida zarur hisoblanadi. "Kreativlik" konsepsiyasi va atamasi XX asrning oxiridan boshlab qo'llanila boshlandi. Xorijiy olimlardan L.Terson, J.Gilford, B.Gizelin, S.Mednik, V.Smit, P.Torrens, K.Teylor, X.Trik, D.Halpern va boshqalar bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borganlar.

Olim B.X.Rahimov o'z tadqiqotida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy madaniy munosabatlarini tadqiq etgan. Uni fikricha: "Kasbiy madaniy munosabatlar shaxslararo amal qiladigan, ijobiy munosabatlar yechimiga erishishda asosiy vosita, vazifasini bajaradi va shaxs faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi".

Shuningdek, tadqiqotchi G.Boymurodov o'z tadqiqotida "Pedagogik kasbga tayyorgarlik samarasini, ko'proq fanlarni chuqur o'zlashtirish va amaliyotda natijasini ko'ra bilishni chuqurlashtirish" deb ta'kidlaydi. Yuqoridagi olimlar tadqiqotlari yuzasidan ma'lum bo'ladiki, bo'lajak mutaxasislarni kasbiy faoliyatiga tayyorlash murakkab va ko'p qirrali jarayondir.

Pedagog olima N.M.Egamberdiyeva o'zining izlanishlarida pedagoglarni "kasbiy yetuklik"gi har bir mutaxassis uchun zarurligini ta'kidlaydi. Kasbiy yetuklik yaxlit bir tizim sifatida bir qancha tarkibiy qismlarni o'zida uyg'unlashtiradi: Ularga "pedagogik madaniyat, ijodkorlik, pedagogik aql-idrok, pedagogik bilimga egalik, individual faoliyat, insonparvarlikka yo'naltirilganlik, ijtimoiy faoliyat" ni kiritish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini o'stirish bilan birga ijtimoiy-madaniy va kommunikativ sifatlarini ham yuksaltirishga alohida e'tibor qaaritish lozimligini hissobga olgan holda tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik faoliyatda jamoyaga tez moslashib ketish ko'nikmalari, kasbiy va pedagogik faoliyatda o'z-o'zini baholash va tizimli baholab borish ko'nkmalari va o'z-o'zini rivojlantirish layoqati kasbi indiktorlarni integratsiyalash zarurligi kelib chiqadi.

Fikrimizcha, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi uning kasbiy bilim va ko'nikmalaridangina iboratemas, ularning ijtimoiy-madaniy va kommunikattsiya jarayonidagi fazilatlariga ham bog'liqligi ko'rsatib berildi va uyg'unlikda rivojlantirilishi tahlil qilindi.

Pedagog olimlar F.Xaydarov va N.Muslimovlar pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning eng muhim tomoni, uni tanlagan kasbiga va mehnat faoliyatiga bog'liqligini

asoslab, unda quyidagi maqsadlar tizimini, ehtiyojlar va motivlar bilan uyg'unlashishini ko'rsatib berganlar:

1. Intelektual salohiyat – fikrlash turlari (ijodiy, nazariy, amaliy bilim.);
2. Irodaviy sifatlar – (maqsadga intiluvchanlik, qiyinchiliklarni yenga olish);
3. Hissiy sifatlar – (o'z-o'zini baholash..);
4. Amaliy ko'nikmalar – (o'zida psixologik, pedagogik, metodik va texnik, texnologik qobiliyatlar...)
5. O'z-o'zini boshqara olish.
6. Komponentlik – olingan nazariy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi va pedagogik amaliyot jarayonida qo'llay olishi.

Professor N.Muslimov o'zining doktorlik dissertatsiyasida mutaxassislarning kasbiy faoliyatini tashkil etish borasidagi fikrlarni berib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: "SHaxsda kasbiy sifatlarning mavjudligi uning mutaxassis sifatida shakllanganlik ko'rsatkichi orqali ifodalanadi. Mutaxasisning kasbiy faoliyatini tashkil etish jarayoni ma'lum bosqichlarda ketma-ketlikda amalga oshiriladi".

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayorgarligini oshirish, ularning pedagogik faoliyatdagi muvafaqiyatlarini tadqiq etish masalalari ko'plab xorijlik olimlar tomonidan ham o'rganilgan. Jumladan, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o'zini o'zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to'liq psixologik shakllari E.F.Zeer tomonidan o'rganilgan. U kasbiy tayyorgarlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi. SHuningdek, shaxsning yo'naltirilganligi, professional jihatdan muhim fazilatlari, professional jihatdan muhim psixofizologik xususiyatlarini ifodalaydi.

M.I.Lukyanova o'qituvchining psixologik-pedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o'quv jarayonida talabalar bilan samarali o'zaro munosabatlarga ega bo'lgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini tushunadi.

Pedagogik va nopedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy mahoratini shakllantirish masalalari bo'yicha rus olimlari V.A.Adolf, A.M.Kochnev, M.M. Levinalar, o'z izlanishlarini olib borishgan. Kasbiy va pedagogik kompetensiyani o'rganishga bag'ishlangan birinchi ilmiy tadqiqotlar N.S.Rozov,Y.A.Klimov, N.V.Kuzminalar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, kasbiy pedagogik kompetensiyaning alohida tarkibiy komponentlarini shakllantirish vositalarini o'rganish D.Sheylz, G.Y.Bush va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Mutaxassisning tayyorgarligini shakllantirishda alohida o'quv fanlarini tashkil etish yo'llari O.V.Doljenko, B.A.Dushkov, Y.N.Emelyanov, I.P.Kaloshinalar tomonidan, kasbiy va pedagogik kompetensiyaning alohida komponentlarini shakllantirishning pedagogik sharoitlari esa M.V.Klarin, V.V.Gorshkova, M.I.Lisina, V.Y.Lyaudislar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek kasbiy pedagogik kompetensiyaning alohida tashkiliy qismlari (komponentlari)ni shakllantirishning pedagogik jarayonlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud, ammo mazkur jarayonlar bir-biridan alohida tadqiq etilmoqda. Umuman olganda, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida dars olib boradigan o'qituvchi tinmay o'z ustida ishlashi, yangi adabiyotlar, uslubiy maqolalar va tajribalar bilan tanishishi, ijodiy izlanishlarda bo'lishi lozim. Ushbu jarayonda o'qituvchi dars davomida ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun o'z faolligini kuchaytiradigan, o'ziga va ta'lim oluvchiga qulay bo'lgan usul va yo'llarni, shuningdek, o'qitish shakllari va vositalarini tanlashi kerak. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida olib boriladigan darslarda faol ishtirok etish, o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilarning birgalikdagi harakatlarini talab qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini ularning kasbiy va ijtimoiy faoliyatda faolligini, ta'lim sifati va samaradorligini namoyon etish qobiliyatini oshiradi. Bu jarayon tashqi omillar, erkin akademik muhit, hamda ichki motivatsiya va bilimga bo'lgan chanqoqlik kabi faktorlar bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед.фан док. Дисс... афтореферат. Тошкент.: 2007. –Б. 132.
2. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – Москва.: «Академия», 2013. –С. 38

3. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компе-тентность учителя. // Педагогика. – 2001. – №10. – С. 56-61

4. Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ҳам касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти. Автореферат.Тошкент.: 2010.-Б.17.